



## **UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA „MAHBUB UL – QULUB“ ASARINI SHARHLAB O'RGATISH**

**Nafisa Yuldasheva,**

**Iroda Narimmatova**

*Ajiniyoz nomidagi NDPI Turkiy tillar fakulteti O'zbek tili va adabiyoti ta'lif yo'nalishi talabalari.*

*Annotatsiya:* Alisher Navoiyning „Mahbub ul-qulub“ asarida komil inson axloqi va uning tarbiyasiga oid muhim manba

*Kalit so'zlar:* Navoiy asarlarini umumiy o'rta ta'lif maktablarida o'rgatish, „Kim chaqqon“ metodi, „O'yla, izla top“ metodi

Mumtoz adabiyotimizning zabardast vakili, turkiy til rivojiga o'zining munosib hissasini qo'shgan buyuk adib Alisher Navoiy ijodi umumiy o'rta ta'lif maktablarining barcha sinflarida, o'quvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o'rgatiladi. Masalan: 5-sinf o'quvchilarining yoshiga mos tarzda pand-nasihat ruhidagi „Hayrat ul-abror“ dostonidan hikoyatlar, 6-sinf adabiyot darsligida komil inson axloqi va uning tarbiyasiga oid muhim manba bo'lgan „Mahbub ul-qulub“, 7-sinf da qit'a va fardlar, 8- inf adabiyot darsligida g'azallari, 9- infda „Farhod va Shirin“ dostonidan parcha, 10- infda Alisher Navoiy g'azallari, 11-infda esa „Saddi Iskandariy“ dostonidan parchalar o'rgatiladi.

„Mahbub ul-qulub“ asari 3qismdan iborat. 1-qism 40 faslni o'z ichiga oladi. Bunda muallif o'z davrining tipik vakillari hayotini tasvirlagan. 10 bobdan tashkil topgan 2-qismda yaxshi va yomon, maqtovga sazovor va nafratga loyiq xislatlar tafsiloti berilgan. 3-qismga masal va hikmatlar kiritilgan. Bu asar 6-sinf adabiyot darslarida o'rgatilishi rejalashtirilgan.

<b>Nº</b>	<b>Mavzu nomi</b>	<b>Soat</b>
1	Alisher Navoiy hayoti va ijodi. „Mahbub ul – qulub“ asaridagi hikmatlar	1
2	Alisher Navoiy hikmatli so'zlari matni ustida ishlash	1
3	Hikmatli so'zlarning talimiylar, tarbiyaviy ahamiyati	1
4	Nazorat ishi. Insho va tahlil. „Odob insonga ziynat“	2

O'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda umumiy o'rta ta'lif maktablarida „Mahbub ul-qulub“ asarini o'rgatishda „Olmos“, „Blits so'rov“,



„Teskari test“, „Qarorlar daraxti“, „O‘zlashtirib javob ber“ kabi metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu usullardan foydalanish o‘quvchilarga mavzuni atroflicha tushuntirish, yoritib berish bilan bir qatorda ularning mavzuni oson esda saqlab qolishiga yordam beradi.

### “Kim chaqqon” metodi

Metodning maqsadi: bu usul orqali oquvchilarda guruhda ishlash, bir birini fikrini hurmat qilish, ta’riflarga to’g’ri javobni chaqqonlik bilan belgilash, rasmlar orqali ma’lumotlarni xotirada saqlash.

Metodning borish tartibi:

Dastlab o‘qituvchi tomonidan 3 guruh shakllantiriladi. Har bir guruhga bir xil ta’rif va unga mos tarzagi rasmlar tushirilgan qog‘ozlar tarqatiladi. Ta’rif va rasmlar bir biriga moslashtiriladi. Topshiriqni bajarish uchun 5 daqiqa vaqt belgilanadi. Jamoalarning topshiriqni to‘liq va to‘g’ri bajarganligidan kelib chiqqan holda baholanadi.

### „O‘yla, izla, top“ metodi

#### Ma’lumotlarni jadvalga mos tarzda joylashtiring.

Insoniyat bog‘ining hosildor daraxti, balki u daraxtning foydali mevasidir; o‘zi xunuk, gapi bema’ni, ovozi yoqimsiz odam qurbaqaga o‘xshaydi; yaxshi odamdan yomonlar ham yomonlik kutmas; yaxshi odam yomonlardan ham yaxshilikni ayamas; arslonning maqsadi – ov qilib, och yirtqichlarni to‘yg‘azmoq, sichqonning harakati – don o‘g‘irlab, tugun axtarmoq;

Yor uldirki, o‘ziga ravo ko‘rmagan narsani

Yoriga ham ravo ko‘rmagay.

O‘zi yori uchun o‘lmoqqa tayyor esa-da,

Lekin yorini bu ishda sherik qilmagay;

Turg‘un yer qayda-yu, aylanuvchi osmon qayda? Bir joyda turgan tuproq qayda-yu, sayr etib yuruvchi yulduz qayda? Ko‘p, bemaza so‘zlaydigan ezma kechalari tong otguncha tinmay huradigan itga o‘xshaydi; bitta kulchani ikki bo‘lib, yarmini och odamga berganni – saxiy deb, o‘zi yemay hammasini muhtoj odamga berganni – axiy do‘sit deb bil; issiqsov uqda jonga orom beruvchi ham u, achchiq-chuchukdan ko‘ngilni ogohlantiruvchi ham u.



Saxovat va himmat to'g'risida	Hilm to'g'risida	Safarning foydalari to'g'risida

Har bir davlatning buyukligi va ulug'ligini ko'rsatib beruvchi eng asosiy manba bu – shubhasiz, adabiyotdir. Aynan mana shu adabiyot uni butun jahonga oyina sifatida tanitadi. Bizning adabiyotimizni esa so'z san'atkori Alisher Navoiy ijodisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ijodkorning nafaqat badiiy balki, diniy, falsafiy va pandnoma ruhida yozilgan asarlari ham kitobxonlar ko'nglidan joy olishga ulgurgan. Shu sababli Navoiy asarlarining ko'pchilik maktab darsligiga kiritilganini o'quvchilarga hayot darslarining boshlanishi deyishimiz mumkin. Chunki uning ko'pchilik asarlarida asosiy g'oya: komil va har jihatdan barkamol insonni tarbiyalashdir. Zero, kishi ma'naviy yuksala borgan sayin ojni qoradan, yaxshini yomondan ajrata olish tuyg'usini kasb etib boradi. Qora kuchlar esa, ko'pincha, o'z hayatini birovlarning johilligi, omiligi, laqmaligi, umuman olganda, jamiyat a'zolari orasida tarqalgan illatlar ustiga quradi. Bu murakkab jarayonni yaxshi idrok eta olgan insongina bu qiyinchiliklarni oson yengib o'tadi. Aynan shu yo'sinda yozilgan „Mahbub ul-qulub“ asarini o'quvchilarga o'rgatishdan maqsad: mutafakkir nazdida inson o'zini anglash asosida fe'l-atvoridagi illatlardan poklansa, yaxshi xulq va fazilatlarni o'zlashtirsa, hayotda yaxshilik va to'g'rilikni o'ziga shior qilib yashasa, uning ruhiyati, albatta, komillik sifatlari bilan bezatiladi va u ikki dunyo saodatiga muvaffaq bo'lishini o'quvchilarga tushuntirishdan iborat. Navoiyning nafaqat „Mahbub ul – qulub“ asari balki, uning barcha asarlari insoniyatni qudratli va kuchli bo'lishga undaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Atakhanovna, Y. G. (2020). ON THE CREATION OF EDUCATIONAL CONTENT AND THE PECULIARITY OF ITS USE FOR MISCELLANEOUS LEARNING IN THE LESSONS OF THE UZBEK LANGUAGE. ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 9(2), 58-65.
2. Abdurakhimova, D. K. (2014). PREREQUISITES FOR THE TRANSITION OF TRADITIONAL BANKS TO DIGITAL BANKING. The Way of Science, 23.



3. Бекниязов, Б. К. (2021). Концепт «кость» в языке казахов Каракалпакстана. In НАУКА В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ (pp. 346-350).
4. Bekniyazov, B. K. (2022). Effectiveness of “Resume” Technology in Forming the Knowledge of Students. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding, 9(11), 210-213.
5. Bekniyazov, B. K. (2021). Linguocultural peculiarities of the concept “eye” in phraseological units in the language of the kazakhs of Karakalpakstan. ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL, 11(1), 673-678.
6. Iriskulov, A., Aslanov, A., & Subhonova, A. (2021). WHY DO WE NEED A GLOBAL LANGUAGE?. Збірник наукових праць ЛОГОΣ.
7. Mengliboevna, B. S., & Sherali, M. (2021, October). The Need to Develop Students' Professional Competencies in Teaching Specific Methods of Teaching the Uzbek Language. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 131-132).